

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MATEMATIKA FANIDAN SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR**Xasanov Shohjahon**Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi
G'anijonova Sarvinozxon Baxodirovna
Farg'ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining turli yo'nalishlar bo'yicha savodxonligini oshirish dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini oshirish ham bugungi kun uchun muhimdir. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika fanidan matematik savodxonligini oshirishda qo'l keluvchi pedagogik texnologiyalar va ularning samaralari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, ta'lim, o'quvchilar, integratsiya, innovatsiya, pedagogika, matematik savodxonlik, o'qituvchi, pedagogik texnologiya.

Abstract: Nowadays, improving the literacy of elementary school students in various areas is one of the urgent issues. In particular, improving the mathematical literacy of elementary school students is important for today. This article talks about pedagogical technologies and their effectiveness in improving the mathematical literacy of elementary school students.

Key words: Primary class, education, students, integration, innovation, pedagogy, mathematical literacy, teacher, pedagogical technology.

Аннотация: В настоящее время повышение грамотности учащихся начальных классов в различных областях является одним из актуальных вопросов. В частности, на сегодняшний день актуально повышение математической грамотности учащихся младших классов. В данной статье говорится о педагогических технологиях и их эффективности в повышении математической грамотности учащихся младших классов.

Ключевые слова: Начальный класс, образование, учащиеся, интеграция, инновации, педагогика, математическая грамотность, учитель, педагогическая технология.

Kirish. O'quvchida darsga bo'lgan qiziqishni oshirishda, mustaqil fikrga ega bo'lishida, faol, bilimli shaxsni kamol toptirishda pedagogik texnologiyalarning dars jarayonida qo'llanishi katta ahamiyat kasb etadi. Ta'limning mazmunini yangilaydi. Hozirgi zamon o'qituvchisi o'z mehnati jarayonida ilg'or usullarni o'z darslarida qo'llashi o'qituvchidan katta mahorat va malaka talab etadi. Bunday o'qituvchilar darsga yangicha yondashib, o'quvchilarning mustaqil ishlariga imkon yaratishi kerak. Ya'ni dars jarayonida o'quvchilarning mustaqil ishlariga e'tibor berilishi lozim. Barcha mustaqil ish o'zida ijodiy elementlarni mujassamlashtiradi, o'quvchilarni ta'limiy muammo bilan yuzma- yuz qo'yadi, har xil yechimlarning bittasini anglash imkonini beradi. O'quvchilarning, asosan, o'qish va imlo savodxonligi bilan bog'liq ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan 1-2-sinflardagi mustaqil ishlardan farqli o'laroq 3-4-sinflardagi mustaqil ishlar imlo savodxonligiga erishishdan tashqari tashabbuskorligi va ijodiy iqtidorlarni o'stirish, fikr-mulohazalarni erkin bayon qilishga o'rgatishi, faolligini oshirishi, dunyoqarashini shakllantirishi bilan ham muhim ta'lim-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning shu jarayondagi faoliyati zamirida o'quv faolligi turadi. Faollik esa bilimlarni chuqurroq egallashga, ma'naviy-axloqiy dunyoqarashni shakllantirishga yo'l ochadi. Mavjud bilimlarni o'zlashtirish inson ma'naviy kamolotining asosini tashkil qiladi..

Muhokama va natijalar. O'qituvchida pedagogik mahorat yuqori bo'lsa, o'quvchilarga innovatsion yondashuv bilan va zamonaviy tarzda dars o'ta oladi. Pedagogik innovatsiya bu: bo'lajak mutaxassislarni yangicha ishlashga tayyorlash; avvalgi egallangan bilimlar asosida sifat o'zgarishlarga erishish; yuqori samaradorlikka yangicha yondashuv. Pedagogik innovatsiya quyidagi yo'nalishlarda bo'lmog'i lozim: boshlang'ich ta'limda milliy istiqlol g'oyasi asoslarini joriy qilishning innovatsion usullari; boshlang'ich ta'limni takomillashtirish va rivojlantirishda yangi pedagogik texnologiyalarni

qo'llash; boshlang'ich ta'limda informatsion texnologiyalarni joriy etish; boshlang'ich ta'limga oid zamonaviy o'quv adabiyotlarni yaratish; Innovatsiya bu - yangicha ishlash. Pedagogik innovatsiyada boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning jahon ta'limi andozalaridagi zamonaviy talablarni e'tiborga olgan holda Boshlang'ich sinflarda matematik amallar bajarishda o'quvchilarning har biriga ta'lim olishda keng imkoniyatlarni yaratib, har birining yuqori natijaga erishishlarini rag'batlantirish va shu orqali o'quv- bilim jarayonining farqli tashkil etilishini ta'minlash uchun da'vat etilgan.

Boshlang'ich sinflarda matematik amallar bajarishni bog'lanish va bilimlarni muvofiqlashtirish tamoyili asosida o'quv fanlarining ichki bog'liqligi va o'quv fanlari aro uzviylikni ta'minlashga xizmat qiladi. Matematik amallarni o'rgatishda quyidagi amallardan foydalanish mumkin. Interfaol metod - ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi, norasmiy bahs - munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim - tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iboratdir. Barcha fan o'qituvchilari shu jumladan boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol metodlardan borgan sari keng ko'lamda foydalanmoqdalar. Interfaol metodlarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Hozirda keng qo'llanib kelayotgan interfaol metodlar turlari juda ko'p bo'lib, ularning hammasi ham boshlang'ich ta'limda qo'llash uchun yaroqli emas. Bunga 1-navbatda boshlang'ich sinf o'quvchisining o'qish, yozish tezligining kichikligi va sinfda aksariyat hollarda 30 tadan ortiq o'quvchi o'qishi bo'ladi. Interfaol metodlar nisbatan kichik auditoriyalarga (30 tagacha) va ko'proq uzluksiz ta'lim tizimining o'rta va yuqori bo'g'inlariga mo'ljallangan bo'lib, boshlang'ich sinflarda qo'llash tajribalari juda kam. SHuning uchun yangi texnologiyalarning faqat boshlang'ich sinf matematika darslarida qo'llash mumkin bo'lganlari haqida so'z yuritamiz.

Interfaol metod sinfda o'tiladigan mavzular yuzasidan muammoli vaziyatlarni muhokama qilishda Aqliy hujum, Adashgan zanjirlar, Savol bering, Insert, BBB, Muammoli savollar, Kichik guruhlarda ishlash metodlari asosida bahs, munozara orqali ularni yechimini topishda yaqindan yordam beradi. Aqliy hujum texnologiyasini qo'llash bir muammoni hal qilish yo'lidan turlicha va iloji boricha ko'proq taklif, fikr - mulohazalarni yig'ishdan iborat. Avvaliga har qanday takliflar qabul qilinadi. Keyin esa, ularning ichidan eng maqulini tanlab olinadi. Bu metodni qo'llashda eng nozik tomoni hamma takliflarni eslab qolishdir. Shuning uchun ularni yozib borish kerak bo'ladi. O'qituvchi ularni shartli belgilar va qisqartirishlar bilan doska yoki vatman qog'ozga yozib boradi. Masalan: 3 - sinfda mavzuga oid quyidagi mashqni hal qilish yuzasidan hamma takliflarni yig'ish mumkin. Quyidagi shaklda nechta to'rt burchakbor? Bunda takliflar to'rtburchaklar sonini sanash usuliga oid bo'lib, ularning sonini to'g'ridan -to'g'ri aytish talab qilinmaydi. Bunda turli takliflar bildirish mumkin. Eng maqbuli avval 1 katakli, keyin 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8 katakdan tuzilgan to'rtburchaklar sonini sanashni taklif qilish mumkin. 22 Yoki biror ifoda qiymatini qulay usulda hisoblash yuzasidan takliflar yig'iladi. Masalan: 1 dan 20 gacha bo'lgan barcha natural sonlar yig'indisini topish yo'li so'raladi. Hamma takliflar qabul qilinadi. Ularning bir nechtasi bo'yicha yig'indi topiladi va usullar taqqoslanadi. Eng qulay usulni taklif qilgan guruh yoki juftlik taqdirlanadi. Biz innovatsion yondashuv deganda faqatgina kompyuterda, proyektor orqali slaydlar bilan dars o'tishni tushunishimiz noo'rin.

Darslarni yangi zamonaviy metodlar, noananaviy usullarda tashkil etish ham innovatsion yondashuvning bir turi sanaladi. Bunday usullar juda samarali bo'lib, o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, bilim, ko'nikma va malakalarining to'g'ri shakllanishiga yordam beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda yuqorida aytib o‘tilgan pedagogic texnologiyalardan foydalanib matematika darslari tashkil etilsa, o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatgichlari yuqorilaydi. O‘quvchilarning matematik savodxonligi oshadi va darslar samarali tashkillanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev “Erkin va farovon , demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” Toshkent “O‘zbekiston” 2016-yil
2. Matematika 3-sinf S.Burxonov, O‘.Xudoyorov, Q.Norqulova Toshkent “Sharq” 2019-yil
3. Boshlang‘ich matematika kursi nazariyasi. F.M.Qosimov, M.M.Qosimova Buxoro-2018
4. Bigbayeva N.U, Sidelnikova R. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. - T: “O‘qituvchi”, 1986. -269-b
5. Begimqulov U.Sh. Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagogik ta’limni tashkil etish.// .Pedagogik ta’lim. jur, № 1, 2004 - 25-25 betlar.
6. Беспалько В.П. Образование и обучение с участием компьютеров (педагогика третьего тысячелетия). М.: НПО “МОДЕК”, 2002. 352-с
7. Mamarasulovna, Y. Y. (2022). BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QITUVCHILARIDA PEDAGOGIK MAHORATNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB AHAMIYATI. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 698-700.